

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida Andijon viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 74 620,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024-yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 5,6 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024-yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 107,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Andijon viloyatining qo'shgan hissasi 5,7 % ga yetdi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida Andijon viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2025-yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024-yil	2025-yil	
I. YAHM, jami	65 606,5	74 620,5	105,6
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	63 346,2	72 994,9	105,5
mahsulotlarga sof soliqlar	2 260,3	1 625,6	107,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	63 346,2	72 994,9	105,5
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	19 107,6	19 956,1	100,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	21 594,3	26 231,0	108,2
sanoat	17 507,4	21 443,2	107,2
qurilish	4 086,9	4 787,8	112,7
xizmatlar	22 644,3	26 807,6	107,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7 357,3	8 673,0	107,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3 497,4	4 467,6	112,9
boshqa xizmat tarmoqlari	11 789,6	13 667,2	104,7

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 21 417,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,6 % ga yuqoridir.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2025-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)




Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024-yil	2025-yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,6	97,8
mahsulotlarga sof soliqlar	3,4	2,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	30,2	27,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	34,1	36,0
sanoat	27,6	29,4
qurilish	6,5	6,6
xizmatlar	35,7	36,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	11,6	11,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,5	6,1
boshqa xizmat tarmoqlari	18,6	18,7

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,8% ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,2 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 27,3 % ni, sanoat tarmog'i 29,4 % ni, qurilish 6,6 % ni va xizmatlar sohasi 36,7 % ni tashkil qildi.


Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,1 f.p. (2024-yilning yanvar-sentabrda – 0,9 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,9 f.p. (2024-yilning yanvar-sentabrda – 2,0 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,8 f.p. (2024-yilning yanvar-sentabrda – 0,3 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,5 f.p. (2024-yilning yanvar-sentabrda – 2,9 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrda – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 100,5 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 27,3 %), sanoatda – 107,2 % (29,4 %), qurilishda – 112,7 % (6,6 %), xizmatlar sohasida – 107,0 % ni (36,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,9 % (11,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,9 % (6,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,7 % dan (18,7 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024-y.

2025- y.



6,3 %

YAHM

5,6 %



2,7 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

0,5 %



8,2 %

Sanoat

7,2 %



6,1 %

Qurilish

12,7 %




8,5 %

Xizmatlar

7,0 %

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 107,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 114,3 % va xizmatlarda – 110,6 % qayd etildi.

**Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 50 342,1 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024-yilning yanvar-sentabr oylarida – 44 013,3 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 69,0 % ni (2024-yilning yanvar-sentabr oylarida – 69,5 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

